



MOLIYAVIY OMMABOPLIK BO‘YICHA MILLIY INDEKSLAR

2025 yil uchun pilot hisobot

Mundarija

➤ Kirish	4
➤ Hisobot Mohiyati	5
➤ Axborot bazasi va baholash chegaralari	6
➤ Indeks tuzilmasi	7
➤ Metodologik asos	8
➤ Yakuniy ballni shakllantirish	9
➤ Natija talqini	10
➤ Asosiy Natijalar	11
➤ Indekslar bo'yicha umumiy natijalar	12
➤ Asosiy yo'nalishlar	13
– Ayollar uchun moliyaviy ommaboplik holati	13
– Chekka hududlarda moliyaviy ommaboplik holati	15
➤ Katta Yoshli Aholiga Doir Natijalar	17
➤ Umumiy holat	18
➤ Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi	19
➤ Moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi	20
➤ Moliyaviy xizmatlarning sifat darajasi	22
➤ Kichik va O'rta Tadbirkorlik Subyektlari	24
➤ Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi	25
➤ Moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi	27
➤ Moliyaviy xizmatlarning sifat darajasi	28

Mundarija

➤ Xulosa va Ustuvor Yoʻnalishlar	29
➤ Katta yoshli aholi boʻyicha xulosa va ustuvor yoʻnalishlar	29
– Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi	29
– Moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi	29
– Moliyaviy xizmatlarning sifat darajasi	29
➤ Kihik va oʻrta tadbirkorlik subyektlari boʻyicha xulosa va ustuvor yoʻnalishlar	30
– Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi	30
– Moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi	30
– Moliyaviy xizmatlarning sifat darajasi	30
➤ Ilovalar	31
➤ Moliyaviy ommaboplik taʼrifi	32
– Xalqaro tashkilotlarining yondashuvlari	32
– Talab va taklif tomonidan baholash yondashuvlari	33
– Markaziy bankning moliyaviy ommaboplik boʻyicha faoliyati	35
➤ Metodologiya	36
– Xalqaro asos va tamoyillar	36
– Koʻrsatkichlar tizimi arxitekturası	36
– Indikatorlarnı hisoblash metodologiyasi	37
– Moliyaviy ommaboplik boʻyicha milliy indekslar	38

KIRISH

Moliyaviy ommaboplik aholi farovonligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va barqaror iqtisodiy o'sish uchun muhim institutsional omil hisoblanadi. To'lov, jamg'arma, kredit va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi fuqarolarning moliyaviy resurslarini samarali boshqarishi, kutilmagan moliyaviy ehtiyojlarga tayyorgarlik ko'rishi va uzoq muddatli moliyaviy maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadbirkorlik subyektlari uchun esa moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati kundalik hisob-kitoblarni amalga oshirish, aylanma mablag'larni moliyalashtirish, investitsiya faoliyatini kengaytirish va biznes ko'lamini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

O'zbekistonda moliyaviy ommaboplikni rivojlantirish bank tizimining kompleks transformatsiyasi va moliyaviy xizmatlar bozorining izchil takomillashuvi bilan uzviy bog'liq holda kechmoqda. Hozirgi bosqichda strategik ustuvorlik moliyaviy xizmatlardan rasmiy foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdan aholining va tadbirkorlik subyektlarining ushbu xizmatlardan ongli, xavfsiz va sifatli foydalanishini ta'minlashga bosqichma-bosqich ko'chmoqda. Shu nuqtayi nazardan, moliyaviy ommaboplik darajasini muntazam va tizimli ravishda baholab borish dalillarga asoslangan tartibga solish choralarini ishlab chiqish, amalga oshirilayotgan siyosat va chora-tadbirlar samaradorligini monitoring qilish hamda davlat siyosatini mavjud ehtiyoj va o'zgarishlarga muvofiq o'z vaqtida takomillashtirishning muhim shartidir.

Moliyaviy ommaboplik darajasi aholi va tadbirkorlik subyektlarining rasmiy moliyaviy tizimga qay darajada integratsiyalashganini ifodalaydi hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi, ulardan foydalanish darajasi va moliyaviy xizmatlarning sifat darajasi asosida baholanadi.

Baholash jarayonida moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilarning taklifi tomonidan shakllangan ma'lumotlar bilan bir qatorda, moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining talabi tomonidan shakllangan ma'lumotlar ham inobatga olinadi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi, ulardan foydalanish darajasi va moliyaviy xizmatlarning sifat darajasini tizimli ravishda baholash imkonini beruvchi birinchi milliy Moliyaviy ommaboplik indeksini ishlab chiqdi. Indeksning pilot bosqichidagi hisob-kitoblari Markaziy bankning muntazam ravishda shakllantiriladigan va taqqoslash imkonini beruvchi ma'lumotlari, shuningdek, banklar va boshqa moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilarning agregatsiyalangan ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv aholi va kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy ommaboplik bo'yicha boshlang'ich holatini baholash, shuningdek, hududlar va alohida yo'nalishlar kesimidagi tafovutlarni aniqlash imkonini beradi. Indeksning muntazam ravishda yangilanib borishi moliyaviy ommaboplik dinamikasini kuzatish, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash hamda qo'shimcha e'tibor va takomillashtirishni talab etadigan yo'nalishlarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Baholashda kompleks yondashuvni qo'llash maqsadida Markaziy bank moliyaviy xizmatlar iste'molchilari ehtiyojlari va xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni hamda mamlakatdagi holatni xalqaro miqyosda baholash imkonini beruvchi ko'rsatkichlarni monitoring qilishni davom ettiradi. Ushbu natijalarni milliy Indekslar bilan uyg'unlashtirish tartibga solish qarorlarining tahliliy asosini mustahkamlash va metodologiyani yanada takomillashtirish imkonini beradi.





HISOBOT MOHIYATI

Hisobot Mohiyati


Mazkur hisobotda 2025-yil uchun Moliyaviy ommaboplik bo'yicha indekslarni pilot tarzda hisoblash natijalari va asosiy xulosalar bayon etilgan.

Indekslar 16 yoshdan katta yoshli aholi hamda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar kesimida alohida hisoblab chiqilgan.

Mazkur pilot nashri kelgusida muntazam monitoringni yo'lga qo'yish uchun boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiladi. Indeksning joriy qiymati hisobot davridagi moliyaviy ommaboplikning joriy holatini ifodalaydi.

Keyingi hisob-kitoblar esa ushbu holatdagi o'zgarishlarning yo'nalishi, ko'lami va barqarorligini baholash imkonini beradi.

Axborot bazasi va baholash chegaralari



Indekslar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Soliq qo'mitasi va Milliy statistika qo'mitasi axborotlari, shuningdek, moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilarning jamlanma ko'rsatkichlari asosida hisoblab chiqilgan.

20
25

Indeksning mazkur pilot nashri moliyaviy ommaboplikni moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilarning taklifi tomonidan baholashni nazarda tutadi. Unda aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy mahsulotlar bilan qamrovi, moliyaviy xizmatlar infratuzilmasi va xizmat ko'rsatish kanallarining rivojlanganlik darajasi, amalga oshirilgan operatsiyalar soni, jalb etilgan jamg'armalar hamda ajratilgan moliyalashtirish hajmi, shuningdek, xizmatlar sifatining ayrim jihatlarini aks ettiriladi.

Keyingi bosqichda baholash tizimini moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining talabi tomonidan shakllantiriladigan ko'rsatkichlar bilan to'ldirish rejalashtirilgan. Bunda aholi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'tkaziladigan so'rovnomalar, shuningdek mijozlar va iste'molchilarning moliyaviy xizmatlardan foydalanish tajribasini o'rganish natijalaridan foydalaniladi.

Mazkur yo'nalish mijozlarning moliyaviy ehtiyojlari, ayrim xizmatlardan foydalanmaslik sabablari, mavjud to'siqlar, moliyaviy tashkilotlarga bo'lgan ishonch darajasi hamda xizmat ko'rsatish sifatining iste'molchilar tomonidan qanday baholanishini hisobga olish imkonini beradi.

Ma'lumotlar bo'yicha cheklovlar

Ayrim yo'nalishlar bo'yicha statistik ma'lumotlar mavjud, ammo ularning tafsilot darajasi moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligini to'liq baholash uchun har doim ham yetarli emas. Masalan, ma'lumotlar bozorining umumiy holatini ko'rsatishi, biroq foydalanuvchilarning tegishli guruhlarini, biznes turlari yoki hududlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini bermasligi mumkin. **Shu sababli ma'lumotning mavjudligi o'z-o'zidan moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining tegishli jihatini to'laqonli baholash mumkinligini anglatmaydi.**

Indeks Tuzilmasi

Baholash tizimi ikkita mustaqil indeksni oʻz ichiga oladi:

Katta yoshli aholi uchun
moliyaviy ommaboplik indeksi



Kichik va oʻrta tadbirkorlik subyektlari uchun
moliyaviy ommaboplik indeksi



Har bir segment boʻyicha alohida hisob-kitob moliyaviy ehtiyojlar, foydalaniladigan mahsulotlar tarkibi va moliyaviy tashkilotlar bilan oʻzaro munosabatlarning xususiyatlaridagi farqlarni hisobga oladi.

Har bir indeks moliyaviy ommaboplikning uchta oʻlchovini qamrab oladi

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi
Aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy mahsulotlar, infratuzilma hamda xizmat koʻrsatish kanallari bilan qamrovini tavsiflaydi

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi
Moliyaviy xizmatlardan foydalanish faolligi, muntazamligi va hajmini aks ettiradi

Moliyaviy xizmatlarning sifat darajasi
Moliyaviy xizmatlarni koʻrsatish shartlari hamda ulardan foydalanish qulayligi, ishonchligi va davomiyligiga taʼsir qiluvchi xizmat koʻrsatish parametrlarini tavsiflaydi

Koʻrsatkichlar moliyaviy xizmatlarning asosiy turlari — toʻlovlar, jamgʻarmalar va depozitlar, shuningdek kreditlash boʻyicha taqsimlangan. Indeks tarkibida moliyaviy ommaboplikni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari ham aks ettirilib, ular raqamlashtirish, xotin-qizlarning moliyaviy ommabopligi hamda qishloq va chekka hududlar aholisining qamrovidan iborat.

Moliyaviy ommaboplik indeksining tuzilmasi

1-DARAJA. Yoʻnalish

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi



Moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi



Moliyaviy xizmatlarning sifat darajasi



2-DARAJA. Xizmat turi

Kreditlar



Depozitlar



Toʻlovlar



3-DARAJA. Strategik guruh

Raqamlashtirish



Ayollar



Qishloq hududlari



Metodologik Asos

31

MOLIYAVIY OMMABOPLIKNI O'LGHASH BO'YICHA AMALIYOT O'RGANILIB, INDEKSLAR METODOLOGIYASI ISHLAB CHIQILDI, JUMLADAN:

15

milliy amaliyot

> 1,600

milliy va xalqaro monitoring tizimlarida qo'llaniladigan indikatorlar tahlil qilindi

16

xalqaro tashkilot yondashuvi

(jumladan Jahon banki, OECD/INFE, AFI, UNEP FI, IMF, G20/GPFI, ADB, IFC, SME Finance Forum, CGAP, UNSGSA, FFA)

Milliy indekslar metodologiyasi moliyaviy ommaboplikni o'lchashning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan. Ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishda xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llaniladigan metodologik tamoyillar va indikatorlar O'zbekiston moliya bozorining tuzilmasi, ma'lumotlarning mavjudligi va milliy ustuvorliklarni hisobga olgan holda moslashtirildi. Bu asosiy ko'rsatkichlarning xalqaro monitoring tizimlari bilan metodologik taqqoslanishini ta'minladi va xalqaro benchmarking uchun asos yaratdi.

Indikatorlar tizimi va ularni hisoblash

yondashuvlari Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki va Moliyaviy ommaboplik alyansi ishtirokidagi ekspert muhokamasidan o'tkazilib, xalqaro tavsiyalar metodologiyani takomillashtirishda hisobga olindi.

Tanlangan ko'rsatkichlar yagona shkalaga keltirilib, izchil baholash tizimiga birlashtirildi. Bunday tuzilma yakuniy natijani mijoz segmentlari, moliyaviy ommaboplik o'lchovlari, moliyaviy xizmat turlari va hududlar kesimida ochib berish imkonini beradi.

Natijalarning o'zaro taqqoslanuvchanligini ta'minlash maqsadida Indeksda asosiy mijoz guruhlari va tahliliy kesimlar uchun yagona mezon

va ta'riflar qo'llanildi. Mazkur ta'riflar hisob-kitobga qaysi jismoniy shaxslar va tadbirkorlik subyektlari kiritilishini, ularning tegishli guruhlariga mansubligi qanday belgilanishini, shuningdek, bir mijozning takroran hisobga olinishiga yo'l qo'ymaslik tartibini belgilaydi.

Pilot hisob-kitob doirasida **katta yoshli aholi** sifatida rasmiy aholi statistikasida qayd etilgan 16 yosh va undan katta jismoniy shaxslar tushuniladi. Har bir shaxs unga tegishli hisobvaraqlar, bank kartalari, kreditlar yoki boshqa moliyaviy mahsulotlar sonidan qat'i nazar, identifikatsion raqami asosida faqat bir marta hisobga olinadi.

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga amalda faoliyat yuritayotgan, mikro, kichik yoki o'rta toifaga kiritilgan tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar kiradi.

Xotin-qizlar tadbirkorligi subyekti sifatida ayol nomiga belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor, rahbari ayol bo'lgan yuridik shaxs, shuningdek ustav kapitalining 50 foizidan ortig'i bir yoki bir nechta ayolga tegishli bo'lgan kichik va o'rta tadbirkorlik subyekti e'tirof etiladi.

Faol mijoz – bu kamida bitta amaldagi moliyaviy mahsulotga ega bo'lgan va yil davomida xizmatdan uch marta va undan ortiq foydalangan yagona mijozdir. Birgina hisobvaraqlarning ochiqqligining o'zi xizmatdan foydalanilganini tasdiqlovchi belgilar bo'lmasa, mijozni faol deb e'tirof etish uchun yetarli asos hisoblanmaydi.

Pilot hisob-kitob maqsadida **hududiy tafovutni** kuzatish uchun 4- va 5-toifadagi tumanlardagi¹ aholi hamda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari baholash konturiga kiritildi. Ushbu yondashuv hududlarning qishloq va shahar kesimidagi taqsimoti ma'lumotlar bazasiga moslashtirilganiga qadar qo'llaniladi.

Jamg'arish mahsulotlari tarkibiga, asosan, pul mablag'larini saqlash va jamg'arish uchun mo'ljallangan muddatli va jamg'arma bank hisobvaraqlari (omonatlar) hisobga olindi. Talab qilib olinguncha hisobvaraqlari asosan to'lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshirishda ishlatilgani tufayli ushbu toifaga kiritilmadi.

Mazkur hisobvaraqlarning mavjudligi moliyaviy tizimdan foydalanish uchun bazaviy imkoniyat yaratilganini ko'rsatadi. Biroq uning o'zi mablag'larni jamg'arish maqsadida moliyaviy vositalardan amalda foydalanilayotganini anglatmaydi.

Bunday tasnif aholining jamg'arish xulq-atvorini mustaqil baholash imkonini beradi. Bunda talab qilib olinguncha hisobvaraqlarning keng tarqalganligi baholash natijasini asossiz ravishda oshirmaydi, jamg'arish mahsulotlaridan foydalanish esa to'lov faolligidan alohida hisobga olinadi. Jamg'arish mahsulotlaridan foydalanish bo'yicha ball belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish darajasini aks ettiradi va muddatli yoki jamg'arma hisobvarag'iga ega aholi ulushini ifodalamaydi.

Mazkur yondashuv metodologiyaning mahsulotlar kesimidagi mantiqiga mos bo'lib, unda kredit, depozit va to'lov xizmatlari alohida yo'nalishlar sifatida baholanadi. Modelda muddatli va jamg'arma depozitlari ham talab qilib olinguncha hamda tranzaksion hisobvaraqlardan alohida toifa sifatida ko'rib chiqiladi.

Yakuniy ballni shakllantirish

Katta yoshli aholi hamda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun 1 dan 100 ballgacha bo'lgan shkala bo'yicha alohida umumlashtirilgan ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Yakuniy ball yagona shkalaga keltirilgan alohida indikatorlardan tashkil topadi va belgilangan vaznlar tizimini hisobga olgan holda birlashtiriladi. Maqsadli ko'rsatkichlar moliyaviy ommaboplikni rivojlantirishning milliy ustuvorliklari va xalqaro mezonlar asosida belgilangan.

Moliyaviy ommaboplik indeksleri aholi hamda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy ommaboplik holatini uch o'lchov: **moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi, ulardan foydalanish darajasi va sifat** bo'yicha integrallashgan tarzda baholaydi. U joriy ko'rsatkichlarning belgilangan maqsadli mezonlarga erishish darajasini, ya'ni aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy mahsulotlar hamda xizmat ko'rsatish kanallari bilan qamrovi, ulardan foydalanish faolligi va muntazamligi, shuningdek, xizmatlarni taqdim etish shartlarining shakllanganlik darajasini aks ettiradi. Mazkur uch komponentli yondashuv Indeksning metodologik tuzilmasiga mos keladi.

Indeks qiymati belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish darajasini aks ettiradi va moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olingan aholi yoki korxonalar ulushining ko'rsatkichi hisoblanmaydi. Masalan, 60 ball qiymat moliyaviy xizmatlar bilan aholining yoki tadbirkorlik subyektlarining 60 foizi qamrab olinganini anglatmaydi, aksincha, umumiy maqsadli ko'rsatkichlarga erishganlik darajasini belgilaydi.

Pilot hisobotda Indeks moliyaviy ommaboplikning joriy holatini keyingi davrlar bilan taqqoslash uchun boshlang'ich mezonni belgilaydi. Kelgusida Indeksning muntazam hisoblanishi o'zgarishlarning yo'nalishi va ko'lamini kuzatish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi, ulardan foydalanish darajasi va moliyaviy xizmatlarning sifat darajasi bo'yicha siljishlarni baholash, shuningdek, eng katta tafovutlar saqlanib qolayotgan yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi.



Yakuniy ball alohida o'lchovlar va indikatorlar qiymatlari bilan birgalikda talqin qilinishi kerak. Ular moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi, ulardan foydalanish darajasi va sifatini ochib beradi. Indeks tuzilmasi umumiy natijani shakllantiruvchi asosiy omillarni hamda keyingi rivojlanish uchun salohiyat saqlanib qolayotgan yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son Farmoni

Indeks Shkalasini Talqin Qilish

Moliyaviy Ommaboplik Indekslari Shkalasi



AHOLI / KICHIK VA O'RTA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi



XX

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi



XX

Moliyaviy xizmatlarning sifat darajasi



XX

1–25 ball — tizimli cheklovlar

Moliyaviy ommaboplik darajasi asosiy o'lovlar bo'yicha sezilarli cheklovlar mavjudligini ko'rsatadi. Aholi yoki tadbirkorlik subyektlarining bazaviy moliyaviy xizmatlar bilan qamrovi, infratuzilma va xizmat ko'rsatish kanallari yetarli darajada rivojlanmagan, moliyaviy mahsulotlardan foydalanish cheklangan.

Mazkur diapazon infratuzilmani rivojlantirish, qamrovni kengaytirish va moliyaviy xizmatlardan foydalanish uchun bazaviy shart-sharoitlarni shakllantirish bo'yicha kompleks choralar zarurligini ko'rsatadi.

26–50 ball — shakllanayotgan moliyaviy ommaboplik qamrovi

Moliyaviy infratuzilmaning asosiy elementlari va bazaviy moliyaviy mahsulotlar shakllangan. Mijozlar qamrovi va xizmatlardan foydalanish darajasi bir xil emas. Ayrim mahsulotlar, hududlar va aholi yoki tadbirkorlik subyektlari guruhlar bo'yicha cheklovlar saqlanib qolmoqda.

Ustuvor yo'nalishlar qamrovni yanada kengaytirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish faolligini oshirish va eng muhim to'siqlarni bartaraf etishdan iborat.

51–75 ball — mustahkam asos va o'sish imkoniyati

Asosiy moliyaviy mahsulotlar va xizmat ko'rsatish kanallari keng tarqalgan. Aholi va tadbirkorlik subyektlari bazaviy moliyaviy xizmatlardan faol foydalanadi, xizmat ko'rsatishning asosiy shartlari umumiy hisobda shakllangan.

Keyingi rivojlanish xizmatlardan foydalanishning muntazamligi va chuqurligini oshirish, moliyaviy mahsulotlar sifatini takomillashtirish hamda hududlar va mijozlar guruhlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish bilan bog'liq.

76–100 ball — ilg'or amaliyotga yaqin daraja

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi, ulardan foydalanish darajasi va sifat yuqori darajada. Saqlanib qolayotgan cheklovlar, asosan, ayrim mahsulotlar, hududlar yoki mijozlar guruhlariga taalluqli bo'lib, manzilli choralarni talab qiladi.

100 ball qiymati shkalaning nazariy yuqori chegarasini anglatadi va metodologik mezon sifatida qo'llaniladi. U siyosatning yakuniy maqsadi sifatida talqin qilinmaydi.




ASOSIY NATIJALAR

Indekslar Bo'yicha Umumiy Natijalar

Aholining moliyaviy ommaboplik indeksi

59


Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi, ulardan foydalanish darajasi va sifati alohida baholanadi



Bu moliyaviy ommaboplikning asosiy poydevori shakllanganini, biroq uni yanada takomillashtirish uchun imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy ommaboplik indeksi

49



Mazkur natija moliyaviy ommaboplik darajasining shakllanayotgan bosqichiga mos keladi.

Aholida asosiy moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi va bazaviy xizmat ko'rsatish kanallariga kirish yetarli darajada shakllangan, biroq bu imkoniyatlar hali xizmatlardan muntazam va faol foydalanishga to'liq o'tmagan. Aksincha, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari moliyaviy tizim bilan qamrab olingan korxonalar moliyaviy xizmatlardan yetarlicha faol foydalanmoqda, biroq tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlar bilan qamrovi hamda ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifat darajasi hanuz asosiy cheklovchi omillar bo'lib qolmoqda.

Nima uchun bu muhim

Natijalar moliyaviy xizmatlardan foydalanish uchun zarur asosiy imkoniyatlar shakllanganini ko'rsatadi. Endilikda asosiy e'tibor ushbu imkoniyatlarni kengaytirish bilan bir qatorda, moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi va ularning sifatini oshirishga qaratilmoqda. Bu moliyaviy ommaboplik siyosatining yangi bosqichga, ya'ni aholining hamda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan muntazam, mas'uliyatli va xavfsiz foydalanishini ta'minlash bosqichiga o'tayotganini anglatadi.

Asosiy Yoʻnalishlar

Ayollarning moliyaviy ommabopligi

Ayollarning bazaviy moliyaviy xizmatlar bilan qamrovi, umuman olganda, mamlakat boʻyicha umumiy koʻrsatkichlar darajasida. Hisobvaraqlarga ega ayollar ulushi mamlakat boʻyicha oʻrtacha koʻrsatkichga yaqin, ayrim mahsulotlar boʻyicha esa undan yuqori. Bu moliyaviy tizimga bazaviy kirish bosqichida yaqqol tafovut mavjud emasligini koʻrsatadi.

Ayollarning Moliyaviy Ommabopligi

72

Ayollar ishtiroki bo'yicha moliyaviy ommaboplik indeksi

Ayollar bazaviy bank mahsulotlaridan foydalanishda mamlakat miqyosidagi umumiy darajaga deyarli teng ishtirok etmoqda. Voyaga yetgan ayollarning **86 foizi va katta yoshli aholining 86 foizi⁶** bank hisobvarag'iga ega.

86%



86%

Jamg'arish uchun ixtisoslashgan mahsulotlar bo'yicha ayollar orasidagi ko'rsatkich biroz yuqori bo'lib, **ayollarning 6 foizida** jamg'arma yoki muddatli hisobvaraqlar mavjud, mamlakat bo'yicha **umumiy ko'rsatkich esa 4 foizini** tashkil etadi.

6%



4%

Ushbu natijalar ayollarning bazaviy hisobvaraqlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish borasida sezilarli natijaga erishilganini hamda ushbu yo'nalishdagi asosiy tafovutlar qisqarganini ko'rsatadi. Keyingi bosqichda chora-tadbirlarni tafovutlar saqlanib qolayotgan alohida moliyaviy mahsulotlar va xizmat ko'rsatish jarayonining muayyan bosqichlariga yo'naltirish maqsadga muvofiq.

Ayollar orasida bank kredit hisobvarag'iga ega bo'lganlar ulushi **19 foizini** tashkil etib, katta yoshli aholi bo'yicha umumiy ko'rsatkichdan atigi 1 foiz bandga past (**20 foiz**). Hisobot davrida ajratilgan yangi chakana **kreditlar hajmining 35 foizi**, chakana **kredit portfeli qoldig'ining esa 38 foizi** ayollar hissasiga to'g'ri kelgan.

19%



20%

Asosiy tafovut kredit mahsulotlaridan foydalanish bosqichida namoyon bo'lmoqda. Xususan, aholiga ajratilgan kreditlar tarkibida ayollarning ulushi, shuningdek, ayollarga tegishli kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining kredit portfelidagi hissasi paritet darajasidan pastligicha qolmoqda. Bu holat bazaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengaygan, ammo kredit resurslaridan amaliy foydalanishda gender tafovutlari hali to'liq bartaraf etilmaganini ko'rsatadi.

Qishloq hududlari²

Qishloq hududlarida aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish holati sezilarli darajada farqlanadi. Katta yoshli qishloq aholisining bank hisobvaraqlari bilan qamrovi mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan pastligicha qolmoqda. Bu bazaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatida hududiy tafovutlar hanuz mavjudligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, qishloq hududlaridagi tadbirkorlik subyektlarining kreditlardan foydalanish qamrovi nisbatan yuqori. Ularning kreditlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi mamlakat bo'yicha umumiy darajaga mos keladi, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha esa undan yuqori natijalar qayd etilgan.

Mazkur farqlar qishloq hududlarida moliyaviy ommaboplikni rivojlantirish choralari mijozlar segmentining xususiyatlaridan kelib chiqib belgilash zarurligini ko'rsatadi. Aholi uchun asosiy ustuvorlik bank hisobvaraqlari bilan qamrovni kengaytirish va kundalik moliyaviy xizmatlardan foydalanish uchun qulay kanallarni rivojlantirishdan iborat. Qishloq hududlaridagi tadbirkorlik subyektlari uchun esa moliyaviy xizmatlarning sifat darajasini oshirish va ulardan raqamli kanallar orqali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son Farmoniga ko'ra to'rtinchi va beshinchi toifadagi tumanlar pilot hisob-kitob uchun olindi

Qishloq Hududlari

49

Qishloq hududlarida moliyaviy ommaboplik darajasi 49 ballni tashkil etdi

Eng katta hududiy tafovut bazaviy bank hisobvaraqlari bilan qamrovda kuzatilmoqda. **Qishloq hududlaridagi katta yoshli aholining 21 foizi** bank hisobvarag'iga ega bo'lib, bu mamlakat bo'yicha umumiy ko'rsatkichdan **65 foiz bandga past (86 foiz)**.

21%

86%

Qishloq aholisining atigi 1 foizi jamg'arma yoki muddatli hisobvarag'iga ega. Bu mamlakat bo'yicha **katta yoshli aholi uchun qayd etilgan 4 foizlik** ko'rsatkichning qariyb to'rtidan biriga teng. Mazkur tafovut qishloq hududlarida moliyaviy tizimga bazaviy kirish bilan bir qatorda, jamg'arishga yo'naltirilgan moliyaviy mahsulotlardan foydalanish imkoniyatlari ham sezilarli darajada cheklanganini ko'rsatadi.

1%

4%

Boshqa tarafdin, qishloq aholisining mavjud bank hisobvaraqlaridan foydalanishining faolligi mamlakat bo'yicha aniqlangan ko'rsatkichga yaqin. Qishloq aholisi bank hisobvaraqlarining **32 foizi nafaol** bo'lsa, mamlakat bo'yicha katta yoshli aholi bo'yicha **bu ko'rsatkich 34 foizni** tashkil etadi.

32%

34%

Shunday qilib, qishloq hududlaridagi asosiy tafovut hisobvaraqlar ochilgandan keyingi foydalanish faolligida emas, balki moliyaviy tizimga dastlabki kirish bosqichida shakllanadi. Bank hisobvarag'iga ega bo'lgan qishloq mijozlarining undan foydalanish faolligi umumiy aholi darajasiga teng yoki ayrim hollarda undan biroz yuqori.



ASOSIY NATIJALAR

Katta Yoshli Aholi

Umumiy Holat

Pilot hisob-kitob natijalariga ko'ra, katta yoshli aholi bo'yicha moliyaviy ommaboplik indeksining mahsulotlar kesimidagi qiymatlari quyidagicha shakllandi.

To'lovlar

58

ball



Kreditlar

59

ball



Omonatlar

59

ball



Natijalar bir-biriga juda yaqin bo'lib, eng yuqori va eng past ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq atigi 1 ballni tashkil etadi. Kredit va jamg'arma mahsulotlari bo'yicha natijalar to'lov xizmatlariga nisbatan biroz yuqori bo'lib, bu asosiy moliyaviy mahsulotlarning nisbatan muvozanatli rivojlanganini ko'rsatadi. Kreditlash ko'lami kengayib borayotgan bir sharoitda kredit faolligining o'sishi jamg'arish imkoniyatlarining rivojlanishi hamda mas'uliyatli qarz olish amaliyotining shakllanishi bilan mutanosib kechishi muhim.

Nima uchun bu muhim

Bank hisobvarag'i aholi uchun moliyaviy tizimga kirishning bazaviy nuqtasi hisoblanadi. Biroq hisobvaraqlarning mavjudligi o'z-o'zidan moliyaviy ommaboplikning yuqori darajasini anglatmaydi, uning amaliy qiymati moliyaviy mahsulotlardan qay darajada muntazam va maqsadli foydalanilayotganida namoyon bo'ladi.

To'lov vositalari kundalik hisob-kitoblarni soddalashtirish bilan birga, mijozning tranzaksion tarixini shakllantiradi. Rasmiy tranzaksion tarixda saqlangan ma'lumotlar esa moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilarga mijozning ehtiyojlari va to'lov xulq-atvorini aniqroq baholashga yordam berishi mumkin.


Umumiy jihatdan, moliyaviy mahsulotlar aholi moliyaviy barqarorligining turli jihatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Depozitlar mablag'larni ko'paytirish, kutilmagan xarajatlar uchun zaxira shakllantirish va moliyaviy chidamlilikni oshirishga xizmat qilsa, kreditlar mas'uliyatli qarz olish sharti bilan muhim ehtiyojlarni moliyalashtirish hamda yirik xarajatlarni vaqt bo'yicha taqsimlash imkonini beradi. Shu bois keyingi bosqichdagi asosiy vazifa moliyaviy mahsulotlarning shunchaki mavjudligini kengaytirish emas, balki ularning aholi uchun real iqtisodiy qiymat yaratadigan, muntazam, maqsadga muvofiq va xavfsiz foydalanilishini ta'minlashdan iborat.

Xizmatdan Foydalanish Imkoniyatining Mavjudligi



Aholi uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanishning asosiy shart-sharoitlari shakllangan. Biroq ayrim yoʻnalishlarda mavjud cheklovlarni kamaytirish va foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Eng yuqori natija toʻlov xizmatlari boʻyicha 69 ball qayd etib, kredit mahsulotlari boʻyicha esa 64 ballni tashkil etdi. Jamgʻarma mahsulotlari 56 ball bilan nisbatan pastroq natija koʻrsatdi. Bu tafovut moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi barcha mahsulotlar boʻyicha bir xil darajada shakllanmaganini koʻrsatadi: toʻlov va kredit xizmatlari nisbatan kengroq rivojlangan boʻlsa, jamgʻarma mahsulotlari boʻyicha qamrovni kengaytirish dolzarbligicha qolmoqda.



Aholining bank tizimiga dastlabki kirishi asosan toʻlov va kredit mahsulotlari orqali shakllanib, ulardan foydalanish uchun zarur boʻlgan asosiy shart-sharoitlar va kanallar yetarli darajada yaratilgan. Jamgʻarma mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish esa moliyaviy ommaboplikni oshirishning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib qolmoqda.


Aholining moliyaviy ommabopligida toʻlov xizmatlari eng rivojlangan yoʻnalish boʻlib, ushbu yoʻnalish boʻyicha indeks 69 ballni tashkil etdi.

Natijaga, avvalo, bank kartalari va raqamli xizmat kanallarining keng tarqalgani taʼsir koʻrsatgan. Katta yoshli aholining **83 foizi bank kartasiga ega**, qariyb **77 foizida internet-bankingning faol profili** mavjud, **86,3 foizi esa mobil internet orqali toʻlovlarni** amalga oshirish imkoniyatiga ega. Bu aholining masofaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanishi uchun zarur texnologik imkoniyatlar keng shakllanganini koʻrsatadi.

Kreditlar boʻyicha moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi 64 ball bilan baholandi. Ushbu natija kreditlashning axborot bazasi va texnologik jarayonlari ancha rivojlanganini aks ettiradi. Xususan, katta yoshli aholining **98 foizi kredit byurosi maʼlumotlari bilan qamrab olingan**, yangi chakana kreditlarning **80 foizi esa avtomatlashtirilgan kredit konveyeri orqali rasmiylashtirilmoqda.** Bunday

qamrov kredit tashkilotlariga aholining deyarli barcha qatlamlari boʻyicha kredit tarixiga oid axborotdan foydalanish imkonini beradi va kredit jarayonlarini tezkorroq tashkil etish uchun zarur infratuzilma shakllanganini koʻrsatadi.

Jamgʻarma mahsulotlari boʻyicha moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi 56 ballni tashkil etdi. Katta yoshli aholining **86 foizi bank hisobvaragʻiga ega**, ammo **jamgʻarma yoki muddatli depozit hisobvaragʻiga ega boʻlganlar ulushi atigi 4 foizni** tashkil etadi. Bu bank tizimi bilan bazaviy qamrov yuqori boʻlishiga qaramay, mablagʻlarni jamgʻarishga moʻljallangan maxsus mahsulotlardan foydalanish hali keng tus olmaganini koʻrsatadi. Shu sababli jamgʻarma mahsulotlari aholining moliyaviy ommabopligini yanada rivojlantirishda alohida eʼtibor talab qiladigan yoʻnalish boʻlib qolmoqda.




Xizmatdan Foydalanish Darajasi




Pilot hisob-kitob natijalariga ko'ra, aholi tomonidan moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi 100 balldan 51 ball bilan baholanib, moliyaviy xizmatlardan foydalanish uchun mustahkam asos shakllanganini va bir vaqtning o'zida o'sish imkoniyati saqlanib qolganini namoyon etadi.

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi mahsulotlar kesimida sezilarli farq qiladi. Eng yuqori natija jamg'arma mahsulotlari bo'yicha qayd etilib, **68 ballni** tashkil etdi. Kredit mahsulotlaridan foydalanish **47 ball**, to'lov xizmatlaridan foydalanish esa **34 ball** bilan baholandi. Aholining bazaviy bank mahsulotlaridan foydalanish muntazamligi va davomiyligini to'liq baholash uchun pilot hisob-kitoblarda mavjud ma'lumotlar yetarli darajada batafsil bo'lmasa-da, mavjud natijalar moliyaviy xizmatlardan amalda foydalanish shakllanganini, biroq foydalanish faolligi, muntazamligi va ko'лами mahsulot turiga qarab sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi.



Natijalar aholining moliyaviy tizimdagi ishtirokini yanada faollashtirish uchun hali foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bazaviy bank mahsulotlardan foydalanish yo'lga qo'yilgan, ammo mavjud imkoniyatlar hali ularning muntazam va faol qo'llanilishiga to'liq aylangani yo'q.




Nima uchun bu muhim

Mavjud holat keyingi o'sish imkoniyati yangi hisobvaraqlar ochish, qo'shimcha kartalar chiqarish yoki shartnomalar sonini ko'paytirishda emas, balki mavjud moliyaviy mahsulotlardan amalda samaraliroq foydalanishda ekanini anglatadi. To'lovlar yo'nalishida faol kartalar ulushini, operatsiyalar chastotasini va naqdsiz hisob-kitoblar turlarini kengaytirish muhim. Jamg'armalarda asosiy vazifa hisobvaraqdan asosan mablag'ni qabul qilish va sarflash vositasi sifatida foydalanishdan muntazam jamg'arish amaliyotiga o'tishdir. Kreditlashda esa to'lov qobiliyatiga ega mijozlar qamrovini kengaytirish bilan birga, qarz yukini nazorat qilish va kredit shartlarini qarz oluvchining moliyaviy imkoniyatlariga mos shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xizmatdan Foydalanish Darajasi

To'lov vositalarining keng tarqalganligi ularning amalda muntazam qo'llanilishini hali to'liq ta'minlamagan. **To'lov xizmatlaridan foydalanish darajasi indeksi 34 ballni tashkil etgani** ham aynan shu tafovutni aks ettiradi: bir katta yoshli aholiga o'rtacha **3,2 ta bank kartasi** to'g'ri kelayotgan bo'lsa-da, so'nggi 12 oy davomida milliy bank kartalarining atigi **53 foizi faol ishlatilgan**. Bu holat to'lov infratuzilmasining miqdoriy kengayishi bilan undan amaliy foydalanish o'rtasida sezilarli uzilish mavjudligini anglatadi. Shu bois, kartalar sonini yanada oshirishning o'zi moliyaviy ommaboplikka cheklangan ta'sir ko'rsatadi. Asosiy e'tibor faol foydalanuvchilar ulushini, operatsiyalar chastotasini va to'lov vositalarining kundalik hisob-kitoblardagi amaliy ahamiyatini oshirishga qaratilishi lozim.

To'lov faolligining tarkibi ham foydalanish ko'lami hali yetarlicha kengaymaganini ko'rsatadi. Jismoniy shaxslar o'rtasidagi P2P-o'tkazmalar jami to'lov operatsiyalarining **69 foizini** tashkil etishi aholida raqamli kanallar orqali mablag' o'tkazish odati mustahkam shakllanganidan dalolat beradi. Biroq tranzaksiyalarning katta qismi aynan bir turdagi operatsiyalarda jamlanayotgani raqamli to'lovlardan foydalanish ssenariylari nisbatan torligicha qolayotganini ham anglatadi. Demak, keyingi bosqichdagi asosiy vazifa raqamli to'lovlardan foydalanishni faqat pul o'tkazmalari bilan cheklab qolmasdan, ularni tovar va xizmatlar uchun kundalik hisob-kitoblar, kommunal va boshqa muntazam to'lovlar kabi kengroq moliyaviy amaliyotlarga tatbiq etishdan iborat.




Kredit mahsulotlaridan foydalanish darajasi indeksi 47 ballni tashkil etdi. Katta yoshli aholining **20 foizi banklarda amaldagi kredit hisobvarag'iga ega**, yana **7 foizi esa tartibga solinadigan mikromoliya tashkilotlarida faol kredit hisobvarag'idan foydalanadi**. Ushbu ko'rsatkichlar kredit xizmatlari qamrovining alohida bozor ishtirokchilari taraflama aks ettiradi.

Shu bilan birga, bank qarz oluvchilarining **29 foizida bittadan ortiq kredit mavjud bo'lib, bir qarz oluvchiga o'rtacha 1,7 ta kredit to'g'ri keladi**. Mazkur natija bir qarz oluvchining bir nechta kreditdan foydalanishi amaliyoti keng tarqalganini, kreditdan foydalanish darajasi va qamrovi ortib borayotganini ko'rsatadi. Boshqa tarafdin, kredit majburiyatlarining moliyaviy tizimga allaqachon jalb qilingan qarz oluvchilar


orasida to'planib borayotgani ham kuzatiladi.

Jamg'arma mahsulotlaridan foydalanish darajasi indeksi 68 ballni tashkil etib, ulardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi bo'yicha 56 ballik bahodan sezilarli yuqori bo'ldi.

Bunday tafovut, avvalo, mavjud depozit hisobvaraqlaridan foydalanish faolligi bilan izohlanadi. Hisobot davri yakuniga ko'ra, depozit hisobvaraqlarining **66 foizi faol hisobvaraqlar** toifasiga kirgan bo'lib, ular bo'yicha so'nggi 12 oy davomida uchtdan ortiq operatsiya amalga oshirilgan. Bu jamg'arma mahsulotlari bilan qamrov nisbatan cheklangan bo'lsa-da, ushbu mahsulotlarga ega mijozlar orasida ulardan amaliy foydalanish faolligi ancha yuqori ekanini anglatadi.




Xizmatning Sifat Darajasi



Pilot hisob-kitob natijalariga ko'ra, aholi uchun moliyaviy xizmatlarning sifat darajasi 100 balldan 64 ball bilan baholanib, xizmat ko'rsatishning asosiy shartlari shakllanganini va shu bilan birga, ayrim yo'nalishlarda sifatni yanada takomillashtirish imkoniyati saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

To'lov xizmatlari sifati **74 ball**, kredit mahsulotlari sifati esa **71 ball** bilan eng yuqori natijalarini qayd etdi. Jamg'arma mahsulotlari bo'yicha **53 ballik** natija qolgan mahsulotlarga nisbatan o'rtacha 20 ballga past natijani ko'rsatdi. Bu moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish uchun zarur asosiy shart-sharoitlar shakllanganini, biroq xizmat sifati mahsulot turiga qarab sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi.



Ushbu Indeksda sifat Markaziy bank yoki iste'molchi tomonidan moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilarga beriladigan tashqi baho sifatida talqin etilmaydi. Pilot bosqichda moliyaviy xizmatlarning sifat darajasi mavjud statistik ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin bo'lgan xizmat ko'rsatish shartlarini ifodalaydi.

Hisob-kitobga mahsulotlarning qiymati va shartlariga oid ayrim ko'rsatkichlar, murojaat va shikoyatlarning soni hamda tarkibi, ularni ko'rib chiqish sifati, shuningdek, kredit portfelining barqarorligi kiritilgan. Shu sababli yakuniy ball, avvalo, bozordagi asosiy shart-sharoitlar va xizmat ko'rsatish mexanizmlari qay darajada shakllanganini aks ettiradi, biroq aholining xizmatlardan qoniqish darajasini bevosita baholamaydi.

Ma'muriy statistika xizmat sifatining faqat ayrim jihatlarini yoritish imkonini beradi. Masalan, shikoyatlar sonining kamligi jiddiy muammolar kamligini ham, mijozlarning murojaat qilish tartibi to'g'risida yetarlicha xabardor emasligini ham anglatishi mumkin.

Bundan tashqari, statistik ko'rsatkichlar mahsulot shartlari mijoz uchun qanchalik tushunarli ekani, xizmat uning ehtiyojlariga qay darajada mos kelishi, mijoz o'zini himoyalangan his qilishi hamda moliyaviy tashkilotlar, moliya bozori va tartibga soluvchi institutlarga qanchalik ishonishini to'liq aks ettirmaydi. **Shu bois, joriy baholash moliyaviy xizmatlarning sifat darajasini o'lchashning dastlabki bosqichi hisoblanadi.** Keyingi bosqichda u aholi o'rtasidagi so'rovlar va iste'molchilar tajribasini o'rganish natijalari bilan to'ldiriladi. Bu xizmat sifatini bevosita mijoz nuqtayi nazaridan baholash va yanada to'liq tasavvur shakllantirish imkonini beradi.

Shunday qilib, to'lov va jamg'arma xizmatlari bo'yicha ro'yxatga olingan murojaat va shikoyatlar soni pastligicha qolmoqda. Shu bilan birga, jamg'arma mahsulotlari sifati bo'yicha nisbatan past natija ushbu mahsulotlarning amaldagi shartlari aholining turli ehtiyojlariga hali to'liq mos kelmayotganini ko'rsatadi.




Xizmatning Sifat Darajasi

Kredit mahsulotlarining sifat darajasi indeksi 71 ballni tashkil etdi.

Yakuniy bahoga, avvalo, aholi kreditlari tarkibida muammoli kreditlar ulushining qariyb 3 foizni tashkil etishi, muammoli qarzdorlikni qoplash uchun shakllantirilgan zaxiralarning yetarliligi, kredit mahsulotlari bo'yicha shikoyatlar ko'rsatkichlari, shuningdek, qarz mablag'larining qiymati, shu jumladan mikromoliya segmentidagi kreditlash shartlari ta'sir ko'rsatgan. Bunday yondashuv kreditlash sifatini kredit portfelining barqarorligi, kredit qiymati va qarz oluvchilarning moliyaviy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlari shartlari orqali baholash imkonini beradi.

Nisbatan yuqori natija amaldagi chakana kredit portfelining barqarorligi hamda uning sifatini nazorat qilish mexanizmlari yetarli darajada shakllanganini ko'rsatadi.

Biroq bu mavjud cheklovlar to'liq bartaraf etilganini anglatmaydi. Kredit qiymati, shartlarning shaffof va tushunarli bo'lishi, shuningdek, to'lov miqdori va jadvalining qarz oluvchining moliyaviy imkoniyatlariga mosligi bundan keyin ham alohida e'tibor talab qiladi. Chunki sifatli kreditlash ajratilgan kreditlar soni bilan emas, balki moliyalashtirishning mijoz ehtiyojlariga qanchalik mos kelishi va qarz oluvchi tomonidan ortiqcha qarz yukini yuzaga keltirmagan holda o'z vaqtida xizmat ko'rsatilishi bilan belgilanadi



Jamg'arma mahsulotlarining sifat darajasi indeksi 53 ballni tashkil etdi.

Yakuniy bahoga, asosan, jismoniy shaxslarning yangi muddatli depozitlari bo'yicha jozibador o'rtacha tortilgan foiz stavkasi hamda depozit xizmatlari yuzasidan shikoyatlar darajasining

pastligi ta'sir ko'rsatgan.

Mazkur baholash yondashuvida jamg'arma mahsulotlarining sifati mablag'larni joylashtirish shartlari, mahsulotlarning daromadliligi hamda omonatchilar manfaatlarini himoya qilishga oid ko'rsatkichlar orqali baholanadi.





ASOSIY NATIJALAR


— Kichik va Oʻrta Tadbirkorlik Subyektlari —

Xizmatdan Foydalanish Imkoniyatining Mavjudligi

Pilot hisob-kitob natijalariga ko'ra, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi 39 ball bilan baholandi. Bu natija mazkur segmentda moliyaviy ommaboplikning asosiy shart-sharoitlari shakllanayotganini, biroq qamrov va foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati saqlanib qolayotganini ko'rsatadi

39

Eng yuqori natija kredit mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi bo'yicha qayd etilib, **50 ballni** tashkil etdi. Jamg'arma mahsulotlari bo'yicha ushbu ko'rsatkich **44 ballga** teng bo'lgan bo'lsa, to'lov xizmatlari **19 ball** bilan eng past natijani qayd etdi. Bu kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy tizimga kirishi uchun asosiy imkoniyatlar shakllanganini, biroq ularning rivojlanish darajasi mahsulot turiga qarab sezilarli farq qilishini ko'rsatadi.



Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati mahsulotlar kesimida bir xil shakllanmagan: ular bank hisobvaraqlari va kredit infratuzilmasi bilan nisbatan kengroq qamrab olingan bo'lsa, kundalik naqdsiz hisob-kitob vositalaridan foydalanish imkoniyatlari ancha cheklangan. Kredit va to'lov xizmatlari o'rtasidagi tafovut **31 ballni** tashkil etadi. Bu korxona bank hisobvarag'iga ega bo'lishi yoki kredit axboroti tizimida qayd etilgan bo'lishiga qaramay, naqdsiz to'lovlarni qabul qilish va pul oqimlarini masofadan boshqarish uchun qulay vositalardan yetarli darajada foydalana olmasligi mumkinligini anglatadi. Jamg'arma yo'nalishida ham shunga o'xshash nomutanosiblik saqlanib qolmoqda: bazaviy hisobvaraqlar bilan qamrov nisbatan yuqori bo'lsa-da, maxsus jamg'arma mahsulotlarining tarqalishi cheklangan.

Nima uchun bu muhim

Biznes uchun to'lovlar kundalik xo'jalik faoliyati bilan kreditlash imkoniyatlari o'rtasidagi muhim bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Elektron tushum va xarajatlar korxonaning aylanmasi bo'yicha tasdiqlangan tarixni shakllantirib, kredit tashkilotlari uchun kredit riskini aniqlashda korxonaning pul oqimlari hajmi, muntazamligi va mavsumiyligini aniqroq baholash imkonini beradi. Naqdsiz aylanma cheklangan sharoitda esa kredit tashkilotlari uchun korxonaning joriy faoliyati haqidagi dolzarb axborot bazasi torayadi va kreditga layoqatlilikni baholashda garov hamda avval shakllangan kredit tarixiga tayanish darajasi ortadi.

Xizmatdan Foydalanish Imkoniyatining Mavjudligi

Kichik va oʻrta tadbirkorlik subyektlari kesimida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjudligini baholash eng cheklangan yoʻnalish, bu toʻlov xizmatlaridir. Ushbu yoʻnalish boʻyicha indeks 19 ballni tashkil etdi.

Mazkur natijaga asosan, har bir tadbirkorlik subyektiga toʻgʻri keladigan roʻyxatdan oʻtgan elektron hamyonlar soni taʼsir koʻrsatdi. Bunday natija naqdsiz toʻlovlarni qabul qilish va raqamli toʻlov vositalaridan foydalanish kichik va oʻrta biznes faoliyatida hali keng tarqalgan amaliyotga aylanmaganini koʻrsatmoqda.



Kichik va oʻrta tadbirkorlik subyektlari moliyaviy ommabopligini baholashda kreditlash eng toʻliq qamrab olingan yoʻnalish hisoblanadi. Kredit mahsulotlaridan foydalanish 50 ball bilan baholangan.

Kichik va oʻrta tadbirkorlik subyektlarining qariyb 24 foizi bank yoki mikromoliya tashkilotida amaldagi kredit hisobvaragʻiga ega, kredit byurosida (KATM) qayd etilgan subyektlar ulushi esa taxminan 68 foizni tashkil etadi. Mazkur koʻrsatkich miqyosi bank hisobvaragʻiga ega tadbirkorlik subyektlari ulushiga yaqin. Demak, kredit axboroti bilan qamrov amalda moliyalashtirishdan foydalanayotgan korxonalar doirasidan ancha keng. Bu bir tomondan biznesning bank tizimiga keng jalb etilganini, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik subyektlari boʻyicha kredit axboroti bazasi sezilarli darajada shakllanganini anglatadi. Ushbu ikki omilning uygʻunligi rasmiy kreditlashni kengaytirish va tadbirkorlik riskini aniqroq baholash uchun muhim zamin yaratadi.

Kredit tarixi va korxona aylanmasiga oid maʼlumotlardan birgalikda foydalanish toʻlov qobiliyatiga ega tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Biroq kichik va oʻrta tadbirkorlik subyektlariga ajratilayotgan mikrokreditlarning atigi qariyb 5 foizi toʻliq onlayn kanallar orqali rasmiylashtirilmoqda. Bu biznes uchun kredit olish jarayonlarini raqamlashtirish hali dastlabki bosqichda ekanini koʻrsatadi.

Jamgʻarma mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi indeksi 44 ballni tashkil etdi. Baholashdagi asosiy tafovut bazaviy hisobvaraqlar bilan maxsus jamgʻarma mahsulotlari oʻrtasida kuzatiladi. Kichik va

Kichik va oʻrta tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy tizim xizmatlari bilan qamrovi sezilarli darajada shakllangan. Ayrim toifalarda koʻrsatkichning pastroq chiqishi esa segment tarkibining oʻziga xosligi bilan bogʻliq.

Jumladan, dehqon xoʻjaliklari va hunarmandlar uchun alohida bank hisobvaragʻiga ega boʻlish har doim ham faoliyat yuritishning majburiy sharti emasligi, ushbu toifalarda bank hisobvaraqlari bilan qamrovning pastroq boʻlishi ularning faoliyat yuritish shakli bilan ham izohlanadi.


oʻrta tadbirkorlik subyektlarining qariyb 72 foizi asosiy bank hisobvaragʻiga ega, jamgʻarma yoki muddatli depozit hisobvaragʻiga ega subyektlar ulushi esa 2 foizdan ham kam.

Biroq ushbu nisbatni aholi koʻrsatkichlari bilan bir xil mazmunda talqin qilish toʻgʻri boʻlmaydi. **Biznesda muddatli depozitlarning past ulushi jamgʻarishga moyillik sustligini oʻz-oʻzidan anglatmaydi.** Korxonalar xomashyo xaridi, ish haqi va soliqlarni toʻlash hamda joriy faoliyatni moliyalashtirish uchun mablagʻlardan doimiy va tezkor foydalanishga ehtiyoj sezadi. Shu sababli mablagʻlarni uzoq muddatga joylashtirish korxonaning kundalik moliyaviy operatsiyalarini boshqarish imkoniyatini cheklashi mumkin.

Nima uchun muhim

Bank hisobvaragʻidan foydalanayotgan kichik va oʻrta tadbirkorlik subyekti oʻz faoliyati boʻyicha raqamli tranzaksion tarixni shakllantiradi. Unda korxonaning tushum va xarajatlari, aylanma hajmi va uning muntazamligi, mavsumiy oʻzgarishlar hamda pul oqimlarining barqarorligi aks etadi. Tranzaksion maʼlumotlarni kredit tarixiga oid axborot bilan birgalikda tahlil qilish korxonaning nafaqat avvalgi toʻlov intizomini, balki uning joriy pul oqimini shakllantirish va qarz majburiyatlarini bajarish imkoniyatini ham aniqroq baholashga xizmat qiladi. Bu esa kichik va oʻrta tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni kengaytirish, jumladan, garov imkoniyati cheklangan yoki kredit tarixi boʻlmagan korxonalarni moliyalashtirish uchun muhim asos yaratadi.

Xizmatdan Foydalanish Darajasi



Pilot hisob-kitob natijalariga ko'ra, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi 64 ball bilan baholandi. Bu ko'rsatkich mazkur segmentda moliyaviy xizmatlardan amaliy foydalanish uchun yetarli asos shakllanganini, shu bilan birga, foydalanish ko'lami va faolligini yanada oshirish imkoniyatlari saqlanib qolayotganini anglatadi.

Mazkur baholash doirasida mahsulotlar kesimidagi alohida ball faqat kredit mahsulotlaridan foydalanish bo'yicha shakllantirilib, **64 ballni** tashkil etdi. To'lov va jamg'arma mahsulotlari bo'yicha zarur darajadagi batafsil ma'lumotlar mavjud emasligi sababli hozircha alohida baho shakllantirilmagan. **Shu bois ushbu natija kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining barcha moliyaviy xizmatlardan kompleks foydalanishini emas, avvalo moliyaviy tizimga jalb etilgan korxonalarning kredit mahsulotlaridan foydalanish faolligini aks ettiradi.**

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish bo'yicha nisbatan yuqori natija, avvalo, kreditlash ko'rsatkichlari hisobiga shakllangan. Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari hissasiga ajratilgan bank kreditlari umumiy hajmining qariyb **34 foizi**, banklarning jami kredit portfeli qoldig'ining esa **36 foizi** to'g'ri keladi. Shu bilan birga, amaldagi kredit hisobvarag'iga ega subyektlar ulushi segmentning atigi to'rtidan biriga yaqin.

Bu moliyalashtirish hajmining sezilarli qismi kreditdan foydalanayotgan nisbatan cheklangan doiradagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelayotganini ko'rsatadi. Shuning uchun ushbu ball kredit bilan qamrab olingan tadbirkorlik subyektlarida moliyalashtirish ko'lami yuqoriligini aks ettiradi, biroq kredit mahsulotlari segment bo'ylab bir xil darajada tarqalganini anglatmaydi.

Nima uchun bu muhim

Kreditlash umumiy hajmining o'sishi moliyaviy ommaboplikning to'laqonli kengayishini o'z-o'zidan ta'minlamaydi. Muhimi, moliyalashtirish barqaror faoliyat yuritayotgan korxonalarning kengroq doirasini qamrab olishi hamda kredit shartlari biznesning hajmi, tarmoq xususiyatlari, ishlab chiqarish sikli va pul oqimi tuzilmasiga mos kelishidir.

Xizmatning Sifat Darajasi



Pilot hisob-kitob natijalariga ko'ra, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy xizmatlarning sifat darajasi 43 ball bilan baholandi. Bu ko'rsatkich mazkur segmentda xizmat ko'rsatishning ayrim asosiy shartlari shakllanayotganini, biroq sifat jihatidan hali sezilarli rivojlanish ehtiyoji mavjudligini anglatadi.

Jamg'arma mahsulotlari sifati **50 ball** bilan eng yuqori natijani qayd etdi, kredit mahsulotlari bo'yicha esa **41 ball** shakllandi. To'lov xizmatlarining sifat darajasi bo'yicha alohida baho pilot hisob-kitob doirasida hozircha shakllantirilmagan. Bu mavjud ko'rsatkichlar asosida moliyaviy xizmatlarni taqdim etishning ayrim asosiy jihatlarini baholash imkoni borligini, biroq baholashning qamrovi mahsulot turiga qarab sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi.




Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini kreditlash bozorida HHI³ konsentratsiya indeksi qariyb 1 931 ni tashkil etadi. Indeksda qo'llaniladigan mezonlarga ko'ra, bu bozorda bir nechta faol ishtirokchi mavjudligini ko'rsatib, kreditlashning muayyan darajada jamlanganini anglatadi.

Jamg'arma mahsulotlarining sifat darajasi indeksi 50 ballni tashkil etdi. Yakuniy bahoga ko'ra, asosan, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining yangi muddatli depozitlari bo'yicha yillik o'rtacha tortilgan foiz stavkasining **qariyb 17,4 foizni**, qishloq hududlaridagi tadbirkorlik subyektlarining muddatli depozitlari bo'yicha esa **16,6 foizni** tashkil etgani ta'sir ko'rsatgan. Ushbu ko'rsatkichlar biznesning vaqtincha bo'sh mablag'larini depozitlarga joylashtirishi uchun muayyan daromadlilik sharoitlari shakllanganini ko'rsatadi, biroq mahsulotlarning foydalanish shartlari va moslashuvchanligini baholash imkonini bermaydi

Nima uchun bu muhim

Bozor tuzilmasi va moliyaviy mahsulotlarning xususiyatlari kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining tanlovi hamda ularga xizmat ko'rsatish shartlariga ta'sir qilishi mumkin. Bozorda konsentratsiyaning saqlanib qolayotgani muqobil takliflarning mavjudligini monitoring qilishni muhim qiladi, bunda jozibador foiz stavkasining o'zi jamg'arish mahsulotining biznes uchun amaliy qiymatini belgilamaydi.



³ Herfindahl-Hirschman indeksi (HHI) bozor konsentratsiyasini o'lchaydi va ishtirokchilar ulushlari kvadratlari yig'indisini 10 000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi. Qiymatlar quyidagi shkala bo'yicha talqin qilinadi: 1 500 gacha — past konsentratsiya, 1 500 dan 2 500 gacha — o'rtacha konsentratsiya, 2 500 dan yuqori — yuqori konsentratsiya. Markaziy bankning Kredit axborot davlat reyestri ma'lumotlari.

Xulosa va Ustuvor Yo'nalishlar

Katta yoshli aholi

Indeks natijalari aholining moliyaviy tizimdagi kundalik ishtiroki uchun zarur baza keng shakllanganini ko'rsatadi. Katta yoshli aholining aksariyati bank hisobvarag'i va kartasiga ega, masofaviy xizmat kanallari keng tarqalgan, kreditlash jarayonlarining salmoqli qismi esa avtomatlashtirilgan.

Keyingi bosqichdagi vazifalar yo'nalishlar kesimida farqlanadi va aniq choralarni talab etadi. To'lovlarda asosiy e'tibor foydalanish faolligini oshirishga, jamg'armalarda tranzaksion hisobvaraqlardan muntazam jamg'arishga o'tishga, kreditlashda qarz oluvchilarni baholash sifati, kredit ajratish jarayoni samaradorligi va to'lov qobiliyatiga ega mijozlar qamrovini kengaytirishga qaratilishi lozim. Qishloq hududlarida esa aholini moliyaviy tizimga dastlabki jalb etish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Xizmatdan foydalanish imkoniyatining mavjudligi

Rasmiy jamg'arish amaliyotini kengaytirish

Katta yoshli aholining 86 foizi bank hisobvarag'iga ega, biroq jamg'arma yoki muddatli hisobvaraqlar egalari ulushi atigi 4 foizni tashkil etadi. Kichik miqdordagi mablag'larni muntazam jamg'arish, sodda, moslashuvchan, qulay to'ldiriladigan va yechiladigan mahsulotlarni rivojlantirish ustuvorlikka ega.



Tafovutlarni manzilli qisqartirish

Qishloq aholisi uchun moliyaviy tizimga dastlabki kirish imkoniyatlarini kengaytirish asosiy vazifaligicha qolmoqda. Ayollar bo'yicha bazaviy hisobvaraqlar qamrovida paritetga erishilgan, shu bois keyingi choralar kreditlash, moliyalashtirish hajmi va ayrim moliyaviy mahsulotlardan foydalanishda saqlanayotgan tafovutlarni qisqartirishga qaratilishi lozim.



Xizmatdan foydalanish darajasi

To'lov vositalaridan foydalanish faolligini oshirish

Bir katta yoshli aholiga o'rtacha 3,2 ta bank kartasi to'g'ri keladi, biroq milliy kartalarning atigi 53 foizi faol. Shu bois asosiy e'tibor yangi kartalar sonini ko'paytirishga emas, mavjud vositalardan faol foydalanishni rag'batlantirishga qaratilishi lozim. Savdo ekvayringini rivojlantirish, raqamli kanallar orqali kundalik to'lovlar ko'lamini kengaytirish hamda aholining raqamli moliyaviy ko'nikmalarini oshirish moliyaviy ommaboplikni rivojlantirishga xizmat qiladi.



Jami qarz yukini nazorat qilish

Bank qarz oluvchilarining qariyb uchdan bir qismi bittadan ortiq kreditga ega. Kreditlashni kengaytirish mijozning barcha qarz majburiyatlarini hisobga olish, ma'lumotlarni o'z vaqtida almashish va qarzga xizmat ko'rsatishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni erta aniqlash bilan birga olib borilishi lozim. Mas'uliyatli kreditlash va mas'uliyatli qarz olish aholi moliyaviy farovonligi hamda moliya bozori barqarorligini mustahkamlovchi muhim omildir.



Xizmatning sifat darajasi

Kredit skoringini takomillashtirish

Kredit byurolari ma'lumotlari bilan qamrov 98 foizni tashkil etadi. Biroq qamrovning yuqoriligi o'z-o'zidan kredit riskini sifatli baholashni ta'minlamaydi — bunda foydalanilayotgan axborotning chuqurligi, dolzarbligi va sifati ham muhim. Shu bois kredit qarorlarini asosan cheklovchi "stop-faktorlar"ga tayanib qabul qilishdan voz kechib, qo'shimcha va muqobil ma'lumotlardan foydalanadigan aniqroq, riskka yo'naltirilgan baholash modellariga bosqichma-bosqich o'tish zarur.



Xulosa va Ustuvor Yo'nalishlar

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari

Indeks natijalari kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun bazaviy moliyaviy infratuzilma shakllanganini ko'rsatadi.

Xizmatdan foydalanish imkoniyatining mavjudligi

Biznes uchun yagona raqamli moliyaviy yechim

Hisobvaraqlar, korporativ karta, to'lovlarni qabul qilish, aylanmani hisobga olish va moliyalashtirish imkoniyati yagona raqamli mijoz yo'liga birlashtirilishi lozim.

"Embedded finance" yechimlari biznesning kundalik jarayonlariga moliyaviy xizmatlarni integratsiya qilib, operatsion xarajatlarni kamaytiradi, xizmatlardan foydalanishni soddalashtiradi va kreditlash uchun to'liqroq axborot bazasini shakllantiradi. Bunday yechimlarni kengaytirish kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun raqamli moliyaviy infratuzilmani rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir.



Ixtisoslashtirilgan moliyaviy mahsulotlarni rivojlantirish

Biznes ehtiyojlariga mos moliyaviy yechimlar aylanma mablag'larni to'ldirish, mavsumiy sikllarni moliyalashtirish, debitorlik qarzdorligini boshqarish, yetkazib berish jarayonlari va investitsiyalarni qamrab olishi lozim. Moliyalashtirish shartlari korxonaning hajmi, faoliyat tarmog'i, rivojlanish bosqichi va pul oqimlari xususiyatlariga mos shakllantirilishi zarur.



Qishloq hududlari va ayollar tadbirkorligini manzilli qo'llab-quvvatlash

Olis hududlardagi tadbirkorlar kredit moliyalashtirishning salmoqli qismidan foydalanmoqda. Keyingi choralar moliyaviy mahsulotlarni ularning ishlab chiqarish sikliga moslashtirish hamda olis hududlardagi mijozlarga xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirishga qaratilishi lozim.



Xizmatdan foydalanish darajasi

Vaqtincha bo'sh pul mablag'larini samarali boshqarish vositalarini rivojlantirish

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining 72 foizi⁴⁷ bazaviy hisobvaraqlarga ega bo'lsa-da, maxsus jamg'arma yoki muddatli hisobvaraqlardan foydalanayotganlar ulushi 2 foizdan kam. Shu bois aylanma mablag'lardan foydalanish imkoniyatini cheklamagan holda vaqtincha bo'sh mablag'larga daromad olish imkonini beradigan moslashuvchan mahsulotlarni rivojlantirish zarur.



Xizmatning sifat darajasi

Kredit axboroti qamrovini kengaytirish va pul oqimlariga asoslangan moliyalashtirishni rivojlantirish


Kredit axboroti qamrovini kengaytirish hamda korxonalarning haqiqiy aylanmasi va pul oqimlariga oid ma'lumotlardan foydalanish kredit tarixi qisqa yoki an'anaviy ta'minot imkoniyati cheklangan bizneslarni aniqroq baholash imkonini beradi.





ILOVALAR

Moliyaviy Ommaboplik Ta’rifi



Xalqaro tashkilotlarning yondashuvlari

Zamonaviy amaliyotda moliyaviy ommaboplikning ko’p qirrali xususiyati borasida barqaror konsensus shakllangan bo’lib, bu yetakchi xalqaro tashkilotlar yondashuvlarida o’z aksini topmoqda⁴.

Aholining eng kam ta’minlangan qatlamlariga ko’maklashish bo’yicha maslahat guruhi (CGAP) yondashuviga ko’ra, moliyaviy ommaboplik barcha uy xo’jaliklari va korxonalar maqbul qiymatdagi mas’uliyatli moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo’lgan hamda ushbu xizmatlar ularning ehtiyojlariga mos kelgan holda ulardan amalda foydalana oladigan holat sifatida talqin etiladi. Asosiy mahsulotlar to’plamiga to’lov, jamg’arma, kredit va sug’urta xizmatlari kiritiladi. CGAP moliyaviy xizmatlarning qamrovi, chuqurligi va amaliy foydaliliginini farqlaydi hamda e’tiborni foydalanish imkoniyatining rasmiy mavjudligidan iste’molchi uchun yuzaga keladigan yakuniy natijalarga qaratadi.

Moliyaviy ommaboplik alyansi (AFI) metodologiyasida mazkur tushuncha uchta o’lchov - foydalanish imkoniyatining mavjudligi, foydalanish darajasi va sifat orqali yoritiladi. Bunda foydalanish imkoniyatining mavjudligi va foydalanish darajasi dastlabki konseptual asosni tashkil etib, keyinchalik sifat o’lchovi bilan to’ldirilgan. Yakuniy maqsad sifatida aholining moliyaviy farovonligi belgilanadi, maqsadli guruhlar sifatida esa yetarli darajada qamrab olinmagan hamda rasmiy moliya tizimidan chetda qolgan toifalar ko’rsatiladi.

Shunga o’xshash uch komponentli arxitektura “Yigirmatalik guruhi” (G20) huzuridagi Moliyaviy ommaboplik bo’yicha global hamkorlik (GPFI) yondashuvining ham asosini tashkil etadi. Moliyaviy ommaboplik uch yo’nalish bo’yicha o’lchanadi: moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, ulardan foydalanish, shuningdek, mahsulotlar va ularni taqdim etish sifati. GPFI majburiyati yetarli darajada qamrab olinmagan uy xo’jaliklari va korxonalar manfaatlarini yo’lida barqaror rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati hamda ulardan foydalanish sifatini oshirish sifatida ifodalanadi. Shu bilan birga, GPFI hujjatlarida bazaviy foydalanish imkoniyati hamda moliyaviy mahsulotlardan samarali va mas’uliyatli foydalanish izchil bosqichlar sifatida mazmunan farqlanadi. Bu esa ustuvorlikning qamrovni kengaytirishdan barqaror foydalanuvchi natijalariga erishish tomon siljishini aks ettiradi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) yondashuvi alohida ta’rifni joriy etmaydi, balki moliyaviy ommaboplikni “Yigirmatalik guruhi” (G20)ning moliyaviy xizmatlar iste’molchilari huquqlarini himoya qilish tamoyillari tizimiga integratsiya qiladi. Moliyaviy ommaboplik 3-tamoyil (“Foydalanish imkoniyati va qamrab olish”) hamda 8-tamoyil (“Sifatli moliyaviy mahsulotlar”) o’zaro bog’liqligida ko’rib chiqiladi. Bu esa konseptual jihatdan foydalanish imkoniyatini kengaytirishni mahsulotlarning iste’molchi ehtiyojlariga mosligini ta’minlash hamda uning moliyaviy farovonligini qo’llab-quvvatlash bilan uzviy bog’laydi.

Shunday qilib, terminologik farqlar saqlanib qolayotgan bo’lsa-da, ko’rib chiqilgan yondashuvlar metodologik jihatdan o’zaro bir-biriga yaqin: moliyaviy ommaboplik moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, ulardan amalda foydalanish va sifatni qamrab oluvchi ko’p o’lchovli kategoriya sifatida izchil tarzda belgilanadi. Eng yangi hujjatlarda esa ushbu tushuncha iqtisodiy subyektlarning moliyaviy farovonligi uchun yuzaga keladigan yakuniy natijalarni ham o’z ichiga oladi.

⁴ OECD. (2026). Supporting financial access and inclusion through quality financial products (OECD Business and Finance Policy Papers, No. 97). OECD Publishing, Paris.

CGAP. (2026). Financial inclusion. Consultative Group to Assist the Poor.

CGAP. (2025). Inclusive finance: A primer (Version 1.0). Consultative Group to Assist the Poor.

Global Partnership for Financial Inclusion. (2025). G20 policy recommendations for moving from financial access to usage. GPFI.

CGAP, Better Than Cash Alliance, Global Partnership for Financial Inclusion, & World Bank. (2024). G20 policy options to improve last mile access and quality of inclusion through digital infrastructure, including Digital Public Infrastructure (DPI), consumer protection, and other FIAP objectives.

Washington, DC: CGAP.

Global Partnership for Financial Inclusion. (2023). 2023 Financial Inclusion Action Plan. GPFI / G20.

Alliance for Financial Inclusion. (2020). Policy model for national financial inclusion strategy. Alliance for Financial Inclusion.

Baholash Yondashuvlari

20
25

Talab va taklif nuqtayi nazari

Xalqaro amaliyotda moliyaviy ommaboplik ikki tomonlama yondashuv asosida o'lchanadi. Talab tomoni bo'yicha o'lchash (demand side) aholi va korxonalar o'rtasida o'tkaziladigan so'rovlarga tayanadi hamda ularning moliyaviy xizmatlardan foydalanish bo'yicha shaxsiy tajribasini aks ettiradi. Taklif tomoni bo'yicha o'lchash (supply side) esa xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning ma'muriy va tartibga soluvchi hisobotlariga asoslanadi hamda infratuzilma, hisobvaraqlar, operatsiyalar va portfellarni qamrab oladi. Har ikki yondashuv bir-birini to'ldiradi: talab tomoni ma'lumotlari foydalanuvchi darajasidagi qamrov va to'siqlarni ko'rsatsa, taklif tomoni ma'lumotlari butun tizim darajasida to'liqlik va muntazamlilikni ta'minlaydi.

Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining talabi tomonidan baholash, nafaqat rasmiy qamrovni, balki xizmatlardan amalda foydalanish modeli va jalb etilmaganlik sabablarini ham baholash, shuningdek, natijalarni ijtimoiy-demografik guruhlar kesimida batafsil tahlil qilish hamda mamlakatlar o'rtasida taqqoslash imkonini beradi. Shu bilan birga, uning tahliliy imkoniyatlari so'rovlarning tanlanma xususiyati bilan cheklanadi: davriylikning nisbatan pastligi, respondentlarning o'zini o'zi baholashiga sezuvchanlik va nisbatan yuqori xarajatlar baholashlarning tezkorligi hamda vaqt bo'yicha barqarorligini pasaytiradi.

Moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilarning taklifi taraflama o'lchash, aksincha, hisobvaraqlar, operatsiyalar va portfellarni qo'shimcha xarajatlar past bo'lgan holda to'liq va muntazam qamrab olishni ta'minlaydi. Shu sababli u butun tizim darajasida yanada aniq va tezkor manzarani shakllantirish imkonini beradi. Biroq mazkur yondashuv infratuzilma va faollikni tavsiflaydi, foydalanuvchilarning xatti-harakati hamda jalb etilmaganlik sabablarini esa aks ettirmaydi va ijtimoiy-demografik guruhlar kesimida batafsil ajratish imkoniyati cheklangan. Ikki manbaning turlicha xususiyati ularning o'zaro to'ldiruvchanligini belgilaydi, shu bois metodologiyada ular birgalikda qo'llaniladi.

Talab tomoni bo'yicha eng mashhur ma'lumot manbalaridan biri **Jahon bankining Global Findex bazasi** bo'lib, unda hisobvaraqa egalik qilish asosiy indikator sifatida qo'llaniladi. Uning so'nggi nashri dunyoning **141 ta** iqtisodiyotida **qariyb 145 ming nafar katta yoshdagi aholi** o'rtasida o'tkazilgan reprezentativ so'rovlarga asoslangan. Hisobotga ko'ra, dunyo bo'yicha katta yoshdagi aholining **79 foizi**⁵ hisobvaraqa ega.

Taklif tomoni ma'lumotlari bo'yicha xalqaro darajada taqqoslanishni, xususan, **Xalqaro valyuta jamg'armasining moliyaviy ommaboplik bo'yicha so'rovi (IMF Financial Access Survey)** ta'minlaydi. Indikatorlarning umumqabul qilingan ta'riflaridan foydalanish kelgusida O'zbekistonning milliy ko'rsatkichlarini xalqaro mezonlar bilan solishtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, turli metodologiyalar mazmunan yaqin, biroq aynan bir xil bo'lmagan tushunchalarni o'lchashini inobatga olish lozim. Shu sababli ko'rsatkichlarni bevosita taqqoslash ehtiyotkorlikni hamda ta'riflardagi farqlarni hisobga olishni talab etadi.

⁵ World Bank, Global Findex Database 2025 (141 ta iqtisodiyotdagi ~145 ming nafar katta yoshli shaxs o'rtasidagi so'rov, 2024-yil ma'lumotlari). Ko'rsatkich bank hisobvarag'iga egalik qilishni anglatadi va taklif tomoni ma'lumotlaridagi bank hisobvarag'iga ega aholi ulushiga aynan teng emas

Xalqaro Tashkilotlarning Moliyaviy Ommaboplikni O'lchash Bo'yicha Tadqiqotlari

Xalqaro Tashkilot	Tadqiqot	Asosiy Ko'rsatkich
Jahon Banki	Global Findex Database (moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining talabi tomonidan)	Global Findex Database (moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining talabi tomonidan)
	Global Payments Systems Survey (moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilarning taklifi tomonidan)	To'lov infratuzilmasining, jumladan raqamli to'lov kanallarining mavjudligi va ulardan foydalanish
	Enterprise Surveys (moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining talabi tomonidan)	Bank krediti/kredit liniyasiga ega korxonalar ulushi, shuningdek moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatining mavjudligini cheklov sifatida baholovchi korxonalar ulushi
XVF	Financial Access Survey, FAS (moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilarning taklifi tomonidan)	100 ming nafar katta yoshli aholiga to'g'ri keladigan bankomatlar va filiallar soni; hisobvaraqlar va qarz oluvchilar soni
G20 / GPFI	Basic Set of Financial Inclusion Indicators (moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilarning taklifi tomonidan)	Rasmiy moliyaviy muassasada hisobvarag'iga ega katta yoshli aholi ulushi
AFI	Core Set of Financial Inclusion Indicators; milliy so'rovlar	Hisobvarag'iga ega katta yoshli aholi ulushi; foydalanish imkoniyatining mavjudligi, foydalanish darajasi, sifat
OECD / INFE	Moliyaviy savodxonlik bo'yicha xalqaro so'rov (talab tomonidan)	Moliyaviy savodxonlik indeksi (ball)
FinMark Trust	FinScope (moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining talabi tomonidan o'tkaziladigan so'rov)	Moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olingan aholi ulushi (rasmiy xizmatlardan foydalanadi)

Manba: tegishli xalqaro tashkilotlarning nashrlari.
Ro'yxat illyustrativ xususiyatga ega.



Markaziy Bankning Moliyaviy Ommaboplik Yo'nalishida Faoliyati

Markaziy bankning moliyaviy ommaboplikni oshirish bo'yicha faoliyati uning qonunchilikda belgilangan vakolatlariga asoslanadi. 2020-yildan boshlab "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, kredit tashkilotlari xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, moliyaviy xizmatlar ommabopligini hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish bo'yicha choralar ko'rish Markaziy bank funksiyalari qatoriga kiritilgan.

Shu maqsadda ixtisoslashgan tarkibiy bo'linma tashkil etilib, tegishli ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha ishlar yo'lga qo'yildi. Dastlabki bosqichda ma'lumotlar bazasi cheklangan bo'lib, asosan talab tomoni ma'lumotlari hisobiga shakllantirilgan. Moliyaviy ommaboplikni oshirish bo'yicha birinchi strategiyani tayyorlash doirasida Jahon banki metodologiyasi asosida IFC ishtirokida o'tkazilgan tadqiqot natijalari, OECD metodologiyasi bo'yicha moliyaviy savodxonlikni baholash natijalari, huningdek, ikkinchi strategiyani ishlab chiqish uchun Osiyo taraqqiyot banki ko'magida o'tkazilgan keyingi so'rovlar natijalaridan foydalanilgan.

Shu bilan birga, Markaziy bank moliyaviy infratuzilmaga oid alohida statistik ko'rsatkichlarni, jumladan, bank filiallari, bankomatlar va to'lov terminallari bo'yicha ma'lumotlarni e'lon qilib borgan. Biroq ushbu ma'lumotlar yagona konsolidatsiyalangan formatga birlashtirilmagan, moliyaviy ommaboplikka oid ayrim maxsus ko'rsatkichlar esa muntazam asosda ochiqdanmagan.

To'plangan tajriba va ma'lumotlarni yig'ish imkoniyatlarining kengayishini inobatga olgan holda, Markaziy bank tomonidan moliyaviy ommaboplik indikatorlarini hisoblashning yangi metodologiyasi ishlab chiqildi. Mazkur metodologiya talab va taklif tomoni ko'rsatkichlarini birlashtiradi hamda moliyaviy ommaboplikni muntazam monitoring qilish uchun asos yaratadi.

Indekslar Metodologiyasi

Metodologik tamoyillar va xalqaro yondashuvlar

Moliyaviy ommaboplik indeksleri metodologiyasi Markaziy bank tomonidan xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda moliyaviy ommaboplik ko'rsatkichlarini tanlash, hisoblash, yagona mezonlarga keltirish va umumlashtirish bo'yicha yagona yondashuvni shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan. Metodologiya Jahon banki, IFC va AFI kabi xalqaro tashkilotlar ishtirokida ekspertlar tomonidan ko'rib chiqilib, baholangan bo'lib, bu uning xalqaro yondashuvlar bilan taqqoslanuvchanligini hamda moliyaviy ommaboplik bo'yicha joriy holatni monitoring qilishda qo'llash imkoniyatini ta'minlaydi.

Metodologiyani ishlab chiqishda moliyaviy ommaboplikni o'lchash bo'yicha xalqaro va mamlakatlar tajribasi, jumladan, tartibga soluvchi organlar amaliyoti hamda xalqaro tashkilotlarning metodologik asoslari o'rganildi. Shakllantirilgan indikatorlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi moliya bozori tuzilmasi, milliy ustuvor yo'nalishlar hamda Markaziy bankning ma'muriy ma'lumotlaridan amalda foydalanish imkoniyatlarini inobatga olgan holda moslashtirildi.

Statistik ma'lumotlar bazasi rivojlanishi va ma'lumotlar manbalari kengayib borishi bilan indikatorlar ro'yxati asosiy metodologik tamoyillar saqlangan holda aniqlashtirib borilishi mumkin. Metodologiya natijalarni vaqt davomida, ya'ni tarixiy ma'lumotlar bilan taqqoslash, hisob-kitoblarning shaffofligi hamda indikatorlar tizimining moliyaviy ommaboplikni oshirish maqsadlari bilan bevosita bog'liqligi tamoyillariga asoslangan. Uni ishlab chiqishda xorijiy markaziy banklar va xalqaro tashkilotlarning ilg'or tajribalari tahlil qilindi.

Ko'rsatkichlar tuzilmasi

Ko'rsatkichlar tizimi ikki alohida maqsadli guruh, katta yoshli aholi hamda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun shakllantirilgan. Har bir indikator moliyaviy ommaboplikning uchta asosiy tarkibiy qismi o'lchov, moliyaviy mahsulot turi va strategik yo'nalish kesimida tasniflanadi.

Moliyaviy ommaboplik uch o'lchov orqali baholanadi: moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi, moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi va moliyaviy xizmatlarning sifat darajasi. Ushbu o'lchovlar o'zaro bog'liq bo'lsa-da, moliyaviy ommaboplikning turli jihatlarini ifodalagani sababli alohida hisoblanadi.

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi aholi va kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy tizim bilan qay darajada qamrab olinganini, ya'ni asosiy moliyaviy mahsulotlar hamda ulardan foydalanish kanallari mavjudligini ifodalaydi.

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi esa mavjud imkoniyatlardan amalda qanchalik faol va muntazam foydalanilayotganini baholaydi. Ushbu ko'rsatkich barcha aholi yoki tadbirkorlik subyektlari bo'yicha emas, balki tegishli mahsulot yoki xizmatdan foydalanayotgan mijozlar doirasida, masalan, hisobvara q yoki to'lov vositasiga ega yoxud moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirayotgan mijozlar orasida hisoblanadi. Shu bois

foydalanish darajasi bo'yicha natija foydalanish imkoniyatining mavjudligi bo'yicha natijadan yuqori bo'lishi mumkin. Bunday holat umumiy qamrov nisbatan cheklangan bo'lsa-da, moliyaviy tizimga jalb qilingan mijozlar xizmatlardan faol foydalanayotganini anglatadi.

Moliyaviy xizmatlarning sifat darajasi esa xizmatlar qanday shartlarda taqdim etilayotganini baholaydi. Bunda ularning qiymati jihatidan maqbulligi, foydalanish qulayligi, ishonchligi, shaffofligi va mijozlar uchun xavfsizligi hisobga olinadi.

Har bir o'lchov doirasidagi indikatorlar moliyaviy mahsulotlar va strategik yo'nalishlar bo'yicha guruhlanadi. Mahsulotlar kreditlar, depozitlar va to'lov xizmatlarini qamrab oladi. Strategik yo'nalishlar tarkibiga esa umumiy ko'rsatkichlar, raqamlashtirish, raqobat muhiti, moliyaviy xizmatlardan jismoniy foydalanish imkoniyati, xotin-qizlarning iqtisodiy ishtiroki, qishloq hududlari, islomiy va "yashil" moliyalashtirish hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish kiradi. Umumiy ko'rsatkichlar barcha mijozlar bo'yicha shakllantiriladi, ayrim strategik yo'nalishlar esa bazaviy indikatorlarning tegishli maqsadli guruhlar kesimidagi natijalarini aks ettiradi. Jumladan, xotin-qizlar va qishloq hududlari bo'yicha baholash alohida yangi indikatorlar tizimini emas, balki mavjud ko'rsatkichlarning ushbu guruhlar kesimidagi holatini ifodalaydi.

Indekslar Metodologiyasi

Hisob-kitob quyi darajadagi ko'rsatkichlardan yakuniy natijaga tomon bir necha izchil bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab har bir indikatorning birlamchi qiymati belgilangan formula asosida hisoblanadi. Keyingi bosqichda ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash imkonini yaratish maqsadida ular min–max normallashtirish usuli orqali yagona shkalaga keltiriladi va har bir indikator uchun 0 dan 1 gacha bo'lgan subindeks shakllantiriladi. Bunda qiymatning oshishi ijobiy natijani anglatadigan indikatorlar hamda, aksincha, qiymatning pasayishi ijobiy hisoblanadigan indikatorlar uchun turli yo'nalishdagi formulalar qo'llanadi.

Normallashtirish uchun minimum va maksimum chegaralar indikator xususiyatidan kelib chiqib uch usuldan biri asosida belgilanadi: tabiiy yoki matematik chegaralar (masalan, ulush ko'rsatkichlari uchun 0–100 foiz), mamlakatlararo taqqoslash natijalari (taqqoslanadigan mamlakatlar guruhi bo'yicha benchmarklar, keskin chetlanadigan qiymatlar chiqarib tashlangan holda) yoki ekspert bahosi.

Hisob-kitob faqat rasmiy va ma'muriy ma'lumotlarga — moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilarning tartibga solish va nazorat hisobotlari, davlat reyestrlari hamda to'lov infratuzilmasiga oid axborotga asoslanadi.

Ma'lumotlar manbalari indikatorlarning tegishli yo'nalishiga qarab belgilanadi:

- kredit ko'rsatkichlari kredit reyestrlari va byurolari ma'lumotlari, shuningdek banklar hamda mikromoliya tashkilotlarining nazorat hisobotlari asosida;
- depozit ko'rsatkichlari buxgalteriya hisobi tizimlari va nazorat ma'lumotlari asosida;
- to'lov ko'rsatkichlari esa to'lov infratuzilmasi va operatsiyalar bo'yicha hisobotlar asosida shakllantiriladi.

Ayrim bloklar iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va kiberxavfsizlikka oid ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Ma'lumotlar har oy muntazam ravishda taqdim etilishi ko'rsatkichlarni vaqt bo'yicha izchil taqqoslash imkonini beradi. Ularning sifati bir necha bosqichda — manba darajasida, birlamchi qiymatlarni hisoblash jarayonida, shuningdek normallashtirish va agregatsiya bosqichlarida nazorat qilinadi. Bunda ma'lumotlarning to'liqligi, belgilangan diapazonlarga muvofiqligi, ko'rsatkich vaznining to'g'ri qo'llanishi hamda yakuniy natijaning barqarorligi tekshiriladi.

Moliyaviy Ommaboplik Bo'yicha Milliy Indeks

Hisoblangan indikatorlar moliyaviy ommaboplikka oid alohida jihatlarni baholash imkonini beradi, biroq ularning har biri mustaqil ravishda holatning yaxlit manzarasini aks ettirmaydi. Shu sababli ayrim mamlakatlarda ushbu ko'rsatkichlar yagona tizimga birlashtirilib, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi milliy indeksi shakllantiriladi.

Dastlab indikatorlar moliyaviy mahsulot turlari bo'yicha guruhlanadi:



Kredit



Depozit



To'lovlar

- har bir o'lchov doirasida birlashtirilib, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi, foydalanish darajasi va sifat darajasi bo'yicha alohida baholar shakllantiriladi.

Keyingi bosqichda ushbu uchta baho tegishli vaznlar asosida birlashtirilib, har bir segment uchun yagona indeks shakllantiriladi. Aholi hamda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari moliyaviy ehtiyojlari va foydalanadigan mahsulotlar tarkibi bo'yicha farqlangani sababli, hisob-kitob ular uchun alohida amalga oshiriladi. Bu yondashuv natijalarning mazmunan taqqoslanishini saqlab qoladi. Mahsulotlar va bloklar tarkibidagi alohida indikatorlarning vaznlari metodologik asosda, milliy ustuvorliklardan kelib chiqib belgilanadi. Asoslantirilgan farqlar mavjud bo'lmagan hollarda esa ular teng taqsimlanadi.

Natijalar

Mazkur bosqichma-bosqich birlashtirish natijasida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi milliy indeksi shakllantiriladi.

U indikatorlar tizimi bo'yicha hisob-kitoblardan bevosita hosil qilinadigan, natijalarni yagona miqdoriy bahoda jamlovchi ko'rsatkichdir. Indeks 0 dan 100 ballgacha bo'lgan shkala asosida ifodalanadi: qiymatning yuqoriligi belgilangan maqsadli mezonlarga nisbatan holatning yaxshiroq ekanini anglatadi. Shu tariqa turli mazmun va o'lchovdagi birlamchi ko'rsatkichlar vaqt davomida o'zaro taqqoslash mumkin bo'lgan yagona bahoga keltiriladi.

Indeksning pog'onali tuzilishi yakuniy natijani tarkibiy qismlar bo'yicha qayta tahlil qilish imkonini ham beradi.

Ya'ni umumiy bahoni moliyaviy ommaboplik o'lchovlari, mahsulot turlari va strategik yo'nalishlarga ajratib ko'rish mumkin. Bu yakuniy natijaga qaysi omillar ko'proq ta'sir qilayotganini aniqlash, ortda qolayotgan yo'nalishlarni ko'rish hamda miqdoriy baholarni moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan siyosat maqsadlari bilan bog'lash imkonini beradi.

2025 Yil Uchun Pilot Hisobot